**“T A S D I Q L A Y M A N”**
**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB**
**Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari**
**- Tender komissiyasi raisi**

**_______________ A.Ergashev**
**«_24_» _______________ 2024 y.**

# TANLOV HUJJATI

Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi bo‘yicha o‘quv kursi xizmati

**Buyurtmachi:** “O‘zsanoatqurilishbank” ATB

Toshkent – 2024 y.

MUNDARIJA:


I. **Tanlov ishtirokchilari uchun qo'llanma.**

II. **Tanlovning texnik qismi.**

III. **Tanlovning narx qismi.**

IV. **Shartnoma shakli.**

## TANLOV TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

| | |
|---|---|
| **Tanlov predmeti** | Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi bo‘yicha o‘quv kursi xizmati |
| **Lot bo‘linishi** | Yo‘q, lot bo‘linmaydi |
| **Xaridning reja jadvali** | 2024 yil II chorak |
| **Savdolar o‘tkaziladigan oy** | May, iyun |
| **Moliyalashtirish manbai** | Buyurtmachi o‘z mablag‘lari |
| **Boshlang‘ich narxi** | **QQS bilan 7 146 687 000 (yetti milliard bir yuz qirq olti million olti yuz sakson yetti ming) so‘m.** |
| **Taklif kafolat miqdori** (avans zalogi yoki bank kafolati) | Ko‘zda tutilmagan |
| **To‘lov shartlari** | Bo‘nak to‘lovi mavjud emas. Ko’rsatilgan xizmatlar uchun qabul qilib olish to’g’risidagi dalolatnoma tomonlar o’rtasida imzolanganidan so’ng, ijrochiga Tanlov predmeti bo’yicha buyurtmachida asosli e’tirozlar bo’lmasa 100 fozi to’lov 5 (besh) bank ish kuni ichida amalga oshiriladi |
| **To‘lov valyutasi** | O‘zbekiston milliy valyutasi – so‘m. Norezident yetkazib beruvchilar uchun Markaziy bankning g‘olib aniqlangan sanadagi kursi bo‘yicha horijiy valyutada (AQSH dollari, evro, rubl) |
| **Tovar etkazib beriladigan (ishlar bajariladigan, xizmatlar ko‘rsatiladigan) joy va shartlar** | Texnik topshiriqqa asosan |
| **Tovar etkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) muddati,** (kun) | Shartnoma tuzilgandan so‘ng bir yil davomida |
| **Taklifni amal qilish muddati** | Takliflarni qabul qilish tugagan kundan kamida 12 oy. |
| **Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar** | Tanlovda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida shu kabi o‘xshash etkazib berishlarni amalga oshirishda ishtirok etish taqiqlanmagan, ularda ishtirok etish uchun qo‘yiladigan shartlarni bajargan, raqobatga asoslangan xarid qilinayotgan tegishli tovarni etkazib berish (xizmat ko‘rsatish) tajribasiga ega bo‘lgan mahalliy yoki horijiy ishlab chiqaruvchilar yoki etkazib beruvchilar (ijrochilar) ishtirok etishlari mumkin. |
| **Taklifni rasmiylashtirish shakli** | O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan |
| **Takliflar berish muddati** | 5 ish kuni |
| **Mas’ul xizmat, bog‘laniladigan shaxs, telefon, el. pochta** | Xodimlarni boshqarish departamenti Direktor o'rinbosari H.Boliyeva, (78)120-45-00 (7447) hboliyeva@sqb.uz |

## I. TANLOV ISHTIRKOCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA (quyida - yo‘riqnoma)

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | **Umumiy qoidalar** | 1.1 | Ushbu xarid qilish xujjati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.07.2023 yildagi “ “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-253-sonli Qarori hamda Bank kengashining 24.08.2023 yildagi 2023/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan (ro‘yxat raqami (559-son, 25.08.2023y) ishlab chiqilgan. |
| | | 1.2 | **Tanlov predmeti:** Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi bo‘yicha o‘quv kursi xizmati |
| | | 1.3 | Ushbu Tanlov O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. |
| | | 1.4 | **Boshlang‘ich narx: QQS bilan 7 146 687 000 (yetti milliard bir yuz qirq olti million olti yuz sakson yetti ming) so‘m** QQS bilan.<br>Tanlovda ishtirok etish uchun taklif etilgan narx Tanlovning boshlang‘ich narxidan oshmasligi lozim. |
| | | 1.5 | Xarid qilinadigan xizmatlar bo‘yicha texnik topshiriq Tanlov hujjatlarining texnik qismida keltirilgan. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha taklifning texnik qismi, texnik topshiriqqa to‘liq mos kelishi lozim. |
| 2 | **Tanlov tashkilotchilari** | 2.1 | Tanlov buyurtmachisi – “O‘zsanoatqurilishbank” ATB.<br>“Buyurtmachi” manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Islom Karimov ko‘chasi, 3A-uy, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB bosh ofisining binosi;<br>Tel.: (998-78) 120 45 00 (7447);<br>MFO: 00440; STIR: 200 833 707<br>Hisobraqami: 19907000000000440600;<br>Bank nomi: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB<br>STIR: 200833707 |
| | | 2.2 | Shartnoma tuzuvchi: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB |
| | | 2.3 | Tanlov Buyurtmachi tomonidan 7 a’zo tarkibida tuzilgan Tender komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi. |
| 3 | **Tanlov taklifining Tanlovida ishtirok etish niyati haqida bildirish tartibi** | 3.1 | Tanlovda ishtirok etish uchun, Tanlov Ishtirokchisi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:<br>- Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risida guvohnoma nusxasi;<br>- Oxirgi benefitsiar (tashkilot raxbari) xaqida ma’lumot (pasport va buyruq nusxasi) (manfaatlar to‘qnashuvini o‘rganish maqsadida)<br>- Tanlov ishtirokchisining soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumot (vakolatli organ tomonidan e’lon berilgan muddati ichida olingan ma’lumotnoma).<br>- Tanlov ishtirokchilaring korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymasliklari to‘g‘risidagi kafolat xati;<br>- Tanlov ishtirokchisining qayta tashkil etilmayotganligi, tugatilmayotganligi, buyurtmachilar bilan nizoli muammolari yo‘qligi, tashkilot bankrotlik holatida emasligi to‘g‘risida kafolat xati;<br>- Ta’lim tizimida faoliyat olib borish huquqini beruvchi litsenziya;<br>- Kurs o‘tagan xodimlarning Xorijiy davlatlarda amalayot o‘tash imkoniyatining mavjudligi (xorijiy mamlakatlar tashkilotlari bilan tuzilgan kelishuvlar, memorandum, shartnoma va h.k)<br>- O‘xshash xizmatlar bo‘yicha ish tajribasi mavjudligi;<br>- Kurs davomida xodimlarni o‘zlashtirish jarayonini elektron baholash tizimining mavjudligi hamda ushbu jarayonni bevosita Bank tomonidan kuzatib borish imkoniyati mavjudligi. |
| 4 | **Ishtirokchilarning malakaviy Tanlovi** | 4.1 | Tanlovda faqat malakaviy tanlovdan o‘tgan ishtirokchilarga (ushbu yo‘riqnomaning 1-ilovalariga muvofiq) ruxsat etiladi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 4.2 | Ishtirokchilarning malakaviy tanlovida quyidagi tashkilotlar Tanlovda ishtirok etishga qo'yilmaydi:<br>- Yagona insofsiz ijrochilar reestrida bo'lgan;<br>- soliqlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorliklari bo'lgan;<br>- belgilangan muddatda malakaviy tanlov uchun kerakli hujjatlar to'plamini taqdim etmagan;<br>- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;<br>- Buyurtmachi bilan sud yoki arbitraj ish yurituvchi holatida bo'lgan;<br>- Tanlov hujjatining talablariga mos kelmaydigan malakaviy hujjatlarni taqdim etgan;<br>- Buyurtmachi bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha shartnomalar bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarini tegishlicha tarzda bajarmagan;<br>- ta'sischilari aynan bir xil yuridik va jismoniy shaxslar bo'lgan ishtirokchilar;<br>- Tanlov ishtirokchilari tomonidan hujjatlar kompyuterda yozilib, sana, oy, yillari ko'rsatilgan va rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak;<br>- Rasmiylashtirilgan hujjatlar ikki qismdan iborat bo'ladi, texnik qism va narx qismidan tashkil topadi. Konvertning ichida alohida texnik qism hujjatlari va narx qismi alohida-alohida konvertlarda yelimlangan, imzolangan, muhrlangan holda taqdim etiladi, texnik qism talablariga javob bermagan va narx qismini ochiq tarzda taqdim etgan Tanlov ishtirokchisi Tanlovdan chetlashtiriladi. |
| | | 4.3 | Agar ishtirokchi xarid qilish jarayonida Buyurtmachining biror-bir harakatini sodir etishga, qarorini qabul qilishga yoki biror-bir tanlov taomilining qo'llanishiga ta'sir o'tkazish maqsadida Buyurtmachining istalgan mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shaklidagi haq to'lashni, ishga yollash haqida taklifni, yoki har qanday qimmatli narsani yoki xizmatni bevosita yoki bilvosita ravishda taklif qilsa, ishtirokchida adolatsiz tanlov afzalligi yoki qonunchilik buzilgan darajada manfaatlar nizosi mavjud bo'lsa, Buyurtmachi ishtirokchini tanlov jarayonida ishtirok etishdan chetlatadi. |
| 5 | **Tanlovning tili** | 5.1 | Tanlov taklifi va u bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlar, ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasidagi yozishmalar o'zbek va rus tillarida taqdim etiladi. Bittadan ortiq til qo'llanilganda, tanlov taklifining matnida har xil o'qiladigan joylar bo'lganda, rus tili ustuvor deb hisoblanadi. |
| 6 | **Tanlov to'g'risidagi e'lon, Tanlovda ishtirok uchun hujjatlarni taqdim etish, takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish** | 6.1<br>6.1.1<br><br><br><br><br><br><br>6.1.2 | Tanlov to'g'risidagi e'lon Bankning rasmiy sayti https://sqb.uz da joylashtiriladi;<br>Ishtirokchi rasmiy saytdan tanlov hujjatlarining elektron versiyasini yuklab oladi;<br>Tanlov hujjatlariga muvofiq yopiq tashqi va ichki konvertda takliflarni taqdim etadi. Konvertlar yelimlangan, rahbar imzosi va muhrlangan bo'lishi kerak. Ichki konvert, taklifning narxga oid qismini ochiq holda taqdim qilgan ishtirokchi tanlovdan chetlatiladi.<br>Zarur bo'lganda, Buyurtmachi takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirishi, hamda Tanlov ishtirokchilariga ularning takliflari amal qilishi muddatlarini Tanlovning barcha ishtirokchilari uchun taalluqli bo'lgan tender komissiyasining qarori bo'yicha, ma'lum davrga uzaytirish haqidagi taklif bilan murojaat qilishi mumkin. |
| | | 6.2 | Tanlov hujjatlarini taqdim etish muddatlarini uzaytirish to'g'risida e'lon https://sqb.uz saytida joylashtiriladi, yoki OAV da e'lon qilinadi. |
| | | 6.3 | Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati tanlov takliflarini taqdim etish tugagan paytidan boshlab o'n kundan oshmasligi lozim. |
| | | 6.4 | Ishtirokchilarning tanlov hujjatlarini baholash Tanlov hujjatida ko'rsatilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.<br>Tanlov hujjatlarini baholash uchun tender komissiyasi ekspertlardan va tender komissiyasi a'zolaridan iborat bo'lgan baholash guruhini tuzish huquqiga ega. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | Tanlov takliflarini baholash paytida tender komissiyasi ishtirokchilardan ularning Tanlov takliflari yuzasidan izoh va tushuntirishlarni so'rashi mumkin.<br>Ushbu taomil rasmiy ravishda, yozma shaklda, belgilangan tartibda tanlovning tashkilotchisi orqali o'tkaziladi. Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyatiga ko'ra, hamda narxi bo'yicha hech qanday o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi. |
| 7 | **Boshqa shartlar** | 7.1 | Quyidagi shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko'zda tutilgan javobgarlikka tortiladi:<br>- ishtirokchilarning kelib tushayotgan tanlov takliflari hisobini yurituvchi, ularning saqlanishini va maxfiyligini ta'minlamaydigan shaxslar;<br>- komissiya raisi va a'zolari, tashabbuskor bo'linma-department direktori va hodimlari, tanlov takliflarini o'rganish uchun tuzilgan baholash guruhining a'zolari, axborotni oshkor etganligi uchun, ishtirokchilar bilan, komissiyaning qolgan a'zolari bilan, jalb qilingan ekspertlar bilan til biriktirishga yo'l qo'ygani uchun, shuningdek boshqa noqonuniy harakatlari uchun.<br>- shartnoma bo'yicha majburiyatlarini (miqdoriy, sifat jihatlari va texnik ko'rsatkichlari bo'yicha) bajarmagan Tanlovning g'olibi, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va/yoki tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan javobgarlikka tortiladi. |
| | | 7.2 | Zarur bo'lganda, Buyurtmachi tanlov hujjatiga o'zgartir ishlarni kiritish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ladi.<br>Tanlov hujjatiga o'zgartirishlarni kiritish to'g'risida qaror takliflarni taqdim etish muddati tugaydigan sanadan kamida 3 kun avval qabul qilinishi mumkin. |
| | | 7.3 | Tanlov amalga oshmagan deb tan olinadi, agar:<br>- Tanlovda uchtadan kam ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa, yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa;<br>- takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Tender komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa, yoki tanlovni narxga oid qismiga ikkitadan kam ishtirokchi o'tgan bo'lsa. |
| | | 7.4 | Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklifning qabul qilinishi paytigacha har qanday vaqtda tanlovni bekor qilish huquqiga ega bo'ladi. tanlov bekor qilingan holda, buyurtmachi ushbu qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi. |
| | | 7.5 | Tanlovning ishtirokchisi Buyurtmachiga, tanlovni o'tkazish haqidagi e'londa belgilangan shaklida tanlov hujjatlari qoidalarini tushuntirish haqidagi so'rovni yuborish huquqiga ega bo'ladi.<br>Agar ushbu so'rov takliflarni taqdim etish muddati tugagan sanasidan kamida ikki ish kuni avvalroq Buyurtmachiga kelib tushgan bo'lsa;<br>Buyurtmachi ushbu so'rov kelib tushgan sanasidan ikki ish kuni ichida tanlov hujjatlari qoidalarini tushuntirishni belgilangan shaklida yuborishi lozim. tanlov hujjatlari qoidalarini tushuntirish uning mohiyatini o'zgartirishi mumkin emas. |
| 8. | **Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tuzish** | 8.1 | Tanlovning natijalariga ko'ra, shartnoma tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi. |
| | | 8.2 | G'olib bilan shartnomani o'z vaqtida imzolamaslik va/yoki kafolatlarni taqdim etmaslik shartnomani tuzishdan voz kechish kabi baholanishi mumkin. Bu holda Tanlovning keyingi (zaxira – g'olib bilan shartnoma tuzilgan hollarda amaldagi qonunchillikka muvofiq g'olib-tashkilot topilganda shartnoma tuziladi) ishtirokchisining maqbul taklifi ko'rib chiqiladi. |
| | | 8.3 | G'olib bilan shartnoma O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi doirasida tuziladi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 8.4 | Yuridik shaxslar bilan shartnomani imzolash paytida, agar bunday shartnomalarning summasi bazaviy hisoblash miqdoridan 300 baravar ko'proq yoki undan ortiq bo'lsa, g'olib identifikatsiyalash uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:<br>a) ta'sis hujjatlari (agar korxona aktsiyadorlik jamiyati bo'lsa, ta'sis shartnomasi, agar bunday hujjatlar mavjud bo'lsa, korxonaning ustavi, ta'sischi to'g'risida ma'lumot va aktsiyalarining tuzilmasi haqida ma'lumot);<br>b) korxonaning ustav kapitalida 10 foiz va undan ortiq ulushga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;<br>v) boshqaruv hujjatlari (korxona nomidan to'lov hujjatlarini imzolash uchun vakolatlangan shaxslarning shaxsini tadsiqlovchi hujjatlarning nusxalari, va ularning imazolari namunalari – ixtiyoriy shaklida);<br>g) davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida ma'lumot (STIR berilishi, korxonaning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnomaning, litsenziyalarning berilishi, shu jumladan tegishli davlat organi tomonidan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar uchun berilgan ro'yxatdan o'tish to'g'risidagi ma'lumot);<br>g) agar yuridik shaxsning 10 foiz va undan ortiq miqdoridagi ulushi bo'lgan ta'sischisi ham yuridik shaxs bo'lsa, uning haqidagi ma'lumot ham ushbu bobda belgilangan tartibda (ulushi 10 foiz va undan ortiq bo'lgan jismoniy shaxslar uchun) taqdim etilishi lozim. |

## II. Tanlovning texnik qismi

Ko'rsatiladigan xizmat sifati texnik topshiriqda ko'rsatilgan talablarga javob berishi shart.
Ko'rsatiladigan xizmatlar miqdori va hajmi texnik topshiriqga muvofiq taqdim etiladi.
Texnik topshiriq www.sqb.uz da ilova qilinadi.

## III. Tanlovning narx qismi

Tanlov taklifida ko'rsatilgan narx Tanlovning boshlang'ich xarid narxidan oshmasligi kerak va qo'shimcha o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

| | | |
|---|---|---|
| 1 | Tanlov predmeti | Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi bo'yicha o'quv kursi xizmati |
| 2 | Tanlovning boshlang'ich narxi: | **QQS bilan 7 146 687 000 (yetti milliard bir yuz qirq olti million olti yuz sakson yetti ming) so'm QQS bilan.**<br>**Har bir xizmatning boshlang'ich narxi №1-jadvalga muvofiq ko'rsatilgan.**<br>Tanlov taklifida ko'rsatilgan narx tanlovning boshlang'ich xarid narxidan oshmasligi kerak. |
| 3 | Moliyalashtirish manbaasi | Buyurtmachi o'z mablag'i |
| 4 | To'lov sharti | Bo'nak to'lovi mavjud emas. Buyurtmachi talabiga asosan har bir ko'rsatilgan xizmatlar uchun qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma tomonlar o'rtasida imzolanganidan so'ng, ijrochiga tanlov predmeti bo'yicha buyurtmachida asosli e'tirozlar bo'lmasa 100 fozi to'lov 15 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi |
| 5 | To'lov valyutasi | O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm |
| 6 | Tovar etkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) muddati, (kun) | Shartnoma imzolangan kundan boshlab 1 yil, biroq tanlov natijasida shakllangan shartnoma summasidan oshmagan holda. |

**Jadval №1**

**Xizmatlarning maksimal narxi**

| № | Kurs mavzusi | Davomiyligi | Narxi | Guruh soni | Xorijiy stajirovka | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Professional loyiha boshqaruvi (10-11 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | **57 600 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **460 800 000** (80 nafar - 8 ta guruh) | **226 800 000 (18000$)** Germaniya (15 kishi) | **687 600 000** |
| 2. | Moliyaviy yutuq: Bank mahsulotlarini muvaffaqiyatli sotish jarayonida muhim bo'lgan marketing sirlari (15-16 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | **71 040 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **923 520 000** (200 nafar - 13 ta guruh) | **255 000 000 (20000$)** Singapur (20 kishi) | **1 344 480 000** |
| 3. | Boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish (liderlik ko'nikmalari, qaror qabul qilish, vazifalarni taqsimlash, shaxsiy samaradorlik) (16-17 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | **55 320 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **165 960 000** (50 nafar - 3 ta guruh) | | |
| 4. | Biznes tahlil (10-12 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | **57 600 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **403 200 000** (70 nafar - 7 ta guruh) | **201 600 000 (16000$)** Janubiy Koreya (15 kishi) | **604 800 000** |
| 5. | Banklarda komplaens tizimi (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | **71 040 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **71 040 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | **226 800 000 (18000$)** Angliya (15 kishi) | **297 840 000** |
| 6. | O'zbekiston banklarida dolzarb komplaens risklar (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (15 soat) | **41 640 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **208 795 000** (50 nafar - 5 ta guruh) | **226 800 000 (18000$)** Angliya (15 kishi) | **435 595 000** |
| 7. | Banklarda inson resurslarini boshqarish (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | **57 600 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **57 600 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | **214 200 000 (17000$)** Yaponiya (10 kishi) | **271 800 000** |
| 8. | Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari (10 nafar – 1 ta guruh) | 2 hafta (55 soat) | **88 680 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **88 680 000** (30 nafar - 3 ta guruh) | **151 200 000 (12000$)** Dubay, BAA (15 kishi) | **524 040 000** |
| 9. | Moliyaviy modellashtirish (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | **71 040 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **284 160 000** (40 nafar - 4 ta guruh) | | |
| 10. | Risk menejment va risk madaniyati (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | **41 640 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **291 480 000** (70 nafar - 7 ta guruh) | - | **291 480 000** |
| 11. | Yashil banking (Green Banking) (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | **8 556 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **17 132 000** (20 nafar - 2 ta guruh) | - | **17 132 000** |
| 12. | Administrirovanie PostgreSQL 13 | 1 hafta (40 soat) | **71 040 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **71 040 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | - | **71 040 000** |
| 13. | CFA Birinchi daraja (14 nafar – 1 ta guruh) | 10 hafta (380 soat) | **822 000 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **822 000 000** (14 nafar - 1 ta guruh) | - | **2 489 700 000** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | |
| 14. | FRM (1-qism) (10 nafar – 1 ta guruh) | 7 hafta (250 soat) | **549 000 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **549 000 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | - | |
| 15. | FRM (2-qism) (10 nafar – 1 ta guruh) | 7 hafta (265 soat) | **580 500 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **580 500 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | | |
| 16. | F3 (Moliyaviy hisob) (10 nafar – 1 ta guruh) | 2 hafta (72 soat) | **175 200 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **175 200 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | - | |
| 17. | F7 (Moliyaviy hisobot) (10 nafar – 1 ta guruh) | 2 hafta (75 soat) | **181 500 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **181 500 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | | |
| 18. | F9 (Moliyaviy menejment) (10 nafar – 1 ta guruh) | 2 hafta (75 soat) | **181 500 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **181 500 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | | |
| 19. | Tanqidiy fikrlash (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | **6 540 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **6 540 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | | **6 540 000** |
| 20. | Shaxsiy samaradorlik (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | **6 540 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **13 080 000** (20 nafar - 2 ta guruh) | | **13 080 000** |
| 21. | Kommunikatsiya (16 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | **6 540 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **65 400 000** (160 nafar - 10 ta guruh) | | **65 400 000** |
| 22. | Raqamli intellekt (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | **6 540 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **6 540 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | | **6 540 000** |
| 23. | Taqdimot qilish ko'nikmalari (13 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | **6 540 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **13 080 000** (20 nafar - 2 ta guruh) | | **13 080 000** |
| 24. | Biznes muloqotlar olib borish ko'nikmalari (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | **6 540 000** (TSMRI sertifikati bilan) | **6 540 000** (10 nafar - 1 ta guruh) | | **6 540 000** |
| | **JAMI** | | | **934 nafar** ixtisoslik va yumshoq ko'nikmalar kurslari | **1 502 400 000 (119 000$) 95 nafar** | **7 146 687 000** |

***bunda ishtirokchining narx taklifi ushbu jadvalga muvofiq taqdim etilishi kerak.**
*** Narxlar QQS bilan.**

## IV. Shartnoma loyihasi

Shartnoma loyihasi standart bo'lib, tomonlarning kelishuvi bilan alohida bandlarga o'zgartirishlar kiritish mumkin. Bunda, tanlov xarid hujjatlarida belgilangan talab va shartlar o'zgarishsiz qoldiriladi.

Shartnoma loyihasi www.sqb.uz da ilova qilinadi.

Tanlov taklifi bo'yicha hujjatlar
**RO'YXATI**

1. Kafolat xati, (1) qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida emasligi (2) Ishtirokchi Buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasida emasligi (3) Ishtirokchining Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari yo'qligi (4) Ishtirokchi, shu jumladan uning ta'sischilari imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni ta'minlamaydigan davlat yoki hududlarda ro'yxatdan o'tmaganligi va bank hisob raqamlariga ega emasligi (5) Insofsiz ijrochilar Yagona reestrida mavjud emasligi **(shakl №1).**

2. Tanlov ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot, shu jumladan oxirgi benefitsiari (egasi/muassislari) to'g'risida ma'lumotlar **(shakl №2)**.

3. Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma, tashkilot nizomi va ishtirokchi konsorsium shaklida tanlovda ishtirok etganda tashkilotlar o'rtasida konsorsium tashkil etish bo'yicha tuzilgan shartnomaning nusxalari.

4. Davlat soliq organining (xorijiy yuridik shaxslar uchun boshqa vakolatli organ) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnomasi.

5. Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik to'g'risida majburiy ariza **(shakl №3)**.

6. Ishtirokchi texnik topshiriq va Tanlov hujjatlari bilan tanishganligi, agar g'olib deb aniqlangan taqdirda ularni bajarishga roziligi to'g'risida kafolat xati. **(shakl №4)**

7. Shunga o'xshash xizmatlarni bajarish tajribasi to'g'risida ma'lumot, asoslovchi hujjatlarni ilova qilgan holda: shartnomalar, hisob-fakturalar, bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomalar **(shakl №5)**.

8. Tanlov mezonlariga muvofiq boshqa hujjatlar (ilova №2).

*Shakl №1*

*ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA*

*№* ______________

*Sana:* ___________

**Tender komissiyasi**

**KAFOLAT XATI**

_____________________________ ushbu xat bilan:
*(tashkilot nomi)*

1) Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida emasligini;

2) "O'zsanoatqurilishbank " ATB bilan sudlashish yoki arbitraj muhokamasi holatida emasligini;
3) "O'zsanoatqurilishbank " ATB bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlari yo'qligini;

4) ______*(tashkilot nomi)*_____, shu jumladan uning ta'sischilari imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni ta'minlamaydigan davlat yoki hududlarda (offshor zonalarida) ro'yxatdan o'tmaganligi va bank hisob raqamlariga ega emasligini;

5) Insofsiz ijrochilar Yagona reestrida mavjud emasligini tasdiqlaydi.

Rahbar F.I.Sh: ____________________________________________

Imzo: ______________

M.O'.

*Shakl №2*

*<u>ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA</u>*

*№* ______________
*Sana:* ___________

**Tender komissiyasi**

**Tanlov ishtirokchisi bo'yicha umumiy ma'lumot**

| | | |
|---|---|---|
| **1** | Yuridik shaxsning to'liq nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, STIR raqami | |
| **2** | Yuridik manzili | |
| **3** | Bog'lanish uchun telefon, faks, e-mail | |
| **4** | To'liq bank rekvizitlari | |
| **5** | Faoliyatining asosiy yo'nalishi | |
| **6** | Benefitsiarlari to'g'risida ma'lumot (mulkdorlari/muassislari) | |

Rahbar F.I.Sh: ___________________________________________

Imzo: ______________

M.O'.

*Shakl №3*

<u>*ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA*</u>

*№* ______________

*Sana:* ____________

**Tender komissiyasi**

**Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'yilmaslik bo'yicha**
**ARIZA**

Ushbu xat bilan ______________________________ kompaniyasi:
*(tashkilot nomi)*

1) O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida" Qonuni talablariga rioya etishni;

2) Buyurtmachining yoki boshqa davlat organining amaldagi yoxud sobiq mansabdor shaxsiga, shuningdek xodimiga bevosita yoki bilvosita har qanday mukofot bermaslikni va taklif etmaslikni, tanlov jarayonida Buyurtmachining biron-bir xarakatini sodir etishga, qarorini qabul qilishga yoki biror-bir Tanlov taomilini qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ishga yollash haqida taklifni yoki har qanday qimmatli narsani yoki xizmatni bevosita yoki bilvosita ravishda taklif qilmaslikni;

3) Raqobatga qarshi xarakatlarni sodir etmaslikni, shuningdek manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikni;

4) Firibgarlik, ma'lumotlarni soxtalashtirish va korrupsiyani oldini olishga;

5) Yolg'on ma'lumotlar yoki qalbaki hujjatlarni taqdim etmaslikni hamda mazkur lotda ishtirok etuvchi affillangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishni o'z zimmasiga oladi.

6) Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini, shuningdek Ishtirokchi ta'sischilari va/yoki xodimlari orasida ijrochini tanlov bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega yaqin qarindoshlari mavjud emasligini;

7) Narxlarni yoki tanlov natijalarini o'zgartirish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan til biriktirmaslikni tasdiqlaymiz.

Rahbar F.I.Sh ________________________________________

Imzo: ______________

M.O'.

*Shakl №4*

*ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA*

*№* _______________

*Sana:* _____________

**Tender komissiyasi**

KAFOLAT XATI

______*(tashkilot nomi)*_______ ushbu tanlov bo'yicha texnik topshiriq va xarid hujjatlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi. Agar tashkilotimiz tanlovda g'olib deb topilgan taqdirda, biz tovar (ish, xizmatni) texnik shartlarga va xarid hujjatlariga to'liq muvofiq ravishda yetkazib berishga (bajarishga) rozilik beramiz.

Rahbar F.I.Sh ______________________________________________

Imzo: _______________

M.O'.

***Shakl №5***

*ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA*

*№* ______________

*Sana:* ____________

**Tender komissiyasi**

**Bajarilgan o‘xshash xizmatlar to‘g‘risida ma’lumot.**

| **№ t/r** | **Xizmat nomi** | **Buyurtmachi nomi** | **Bajarilgan davri (yil)** |
|---|---|---|---|
| 1 | | | |
| 2 | | | |
| ... | | | |

- Tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qiling: shartnomalar, hisob-fakturalar, bajarilgan ishlar bo‘yicha dalolatnomalar. Tasdiqlovchi hujjatlar narxlari ko‘rsatilmagan bo‘lishi kerak.

Rahbar F.I.Sh ______________________________________________

Imzo: _______________

M.O‘.

**Ilova № 2**

## Takliflarni baholash usuli - eng past narx usuli

**Eng past narx usuli –** takliflarning malaka va texnik qismidan o'tgan ishtirokchilar orasida eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

**Ishtirokchilarning takliflari 2 bosqichda ko'rib chiqiladi:**

**1 - bosqich:** Texnik malakani baholash;

**2 - bosqich:** Narx taklifini baholash.

### 1. Texnik malakani dastlabki baholash tartibi va mezonlari.

1. Birinchi bosqichning bir qismi.
2. Barcha hujjatlar / barcha ma'lumotlar bajarilishi / taqdim etilishi talab qilinadi;
3. Hujjatlar/ma'lumotlar tashqi konvertda/tashqi qutida taqdim etilishi va muhrlangan bo'lishi kerak;
4. Hujjatlar / ma'lumotlar buyurtmachining yuridik manziliga haqiqiy etkazib berish vaqtini hisobga olgan holda tanlov muddati tugagunga qadar taqdim etilishi kerak;
5. Agar quyidagi jadvalda (1-jadval) ko'rsatilgan hujjatlar / ma'lumotlarning baholash mezoni "Majburiy" bo'lgan hujjatlar / ma'lumotlar taqdim etilmagan bo'lsa, unda bunday holat ishtirokchining ikkinchi bosqichga yo'l qo'yilmasligiga olib keladi;

### 1. Texnik-malakaviy qismini baholash tartibi va mezonlari.

1.1 Malaka va Texnik qismini baholash tartibi va mezonlari.

*1-jadval*

| № | Mezonlar | Baho | Majburiyligi | Eslatma |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi Guvohnoma nusxasi | Mavjud – Mavjud emas | Majburiy | Hujjat taqdim etilmasa ishtirokchi chetlatiladi. Agar ochiq manbalardan va/yoki taqdim etilgan hujjatlarga asosan ishtirokchilar o'rtasida affillangan holati aniqlansa, ushbu ishtirokchilar Tanlovdan chetlatiladi. |
| 2 | Shakl №1 ga muvofiq Kafolat xati | Mavjud – Mavjud emas | Majburiy | **Shakl №1** ga muvofiq rasmiylashtiriladi.. |
| 3 | Ishtirokchi haqida umumiy ma'lumot mavjudligi, ta'sischilar haqida ma'lumot bilan | Mavjud – Mavjud emas | Majburiy | **Shakl №2** ga muvofiq rasmiylashtiriladi. Oxirgi benefitsiari (mulkdolari/muassislari) to'g'risida hujjat yoki ma'lumot taqdim etilmaganda ishtirokchi chetlatiladi. |
| 4 | Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ariza | Mavjud – Mavjud emas | Majburiy | **Shakl №3** ga muvofiq rasmiylashtiriladi. |
| 5 | Davlat soliq organining (xorijiy yuridik shaxslar uchun tegishli vakolitli organ) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnomasi. | Mavjud – Mavjud emas | Majburiy | Hujjat taqdim etilmasa ishtirokchi 0 ball bilan baholanadi. Agar soliq qarzdorligi to'g'risida rasmiy manbaalardan ma'lumot aniqlansa ishtirokchi Tanlovdan chetlatiladi. |
| 6 | Ishtirokchi texnik topshiriq va Tanlov hujjatlari bilan tanishganligi, agar g'olib deb aniqlangan taqdirda ularni | Mavjud – Mavjud emas | Majburiy | **Shakl №4** ga muvofiq rasmiylashtiriladi. Agar ishtirokchi texnik topshiriq va Tanlov hujjatlari bilan tanishganligi, agar g'olib deb aniqlangan taqdirda ularni bajarishga roziligini bildirmasa ishtirokchi 0 ball bilan baholanadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | bajarishga roziligi to‘g‘risida kafolat xati | | | Hujjat taqdim etilmaganda ishtirokchi 0 ball bilan baholanadi. |
| 7 | O‘xshash ish,xizmatlar bo‘yicha ish tajribasi | Mavjud – Mavjud emas | Afzal | **Shakl №5** ga muvofiq rasmiylashtiriladi. (Agar 5-shaklda ko‘rsatilgan jadvalga muvofiq ma’lumot taqdim etilmasa, ishtirokchi chetlatiladi) Baholash taqdim etilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi (tuzilgan shartnomalar, hisob fakturalar.) |
| 8 | Ta’lim tizimida faoliyat olib borish huquqini beruvchi litsenziya | Mavjud – Mavjud emas | Majburiy | Tasdiqlovchi hujjat nusxasi. Tanlov mezoniga mos kelmagan, hujjat umuman taqdim etilmaganda ishtirokchi chetlatiladi. |
| 9 | Kurs o‘tagan xodimlarning Xorijiy davlatlarda amalayot o‘tash imkoniyatining mavjudligi | Mavjud – Mavjud emas | Majburiy | Tasdiqlovchi hujjatlar (*xorijiy mamlakatlar tashkilotlari bilan tuzilgan kelishuvlar, memorandum, shartnoma va h.k.*) Tanlov mezoniga mos kelmagan, hujjat umuman taqdim etilmaganda ishtirokchi chetlatiladi. |
| 10 | Kurs davomida xodimlarni o‘zlashtirish jarayonini elektron baholash tizimining mavjudligi hamda ushbu jarayonni bevosita Bank tomonidan kuzatib borish imkoniyati. | Mavjud – Mavjud emas | Afzal | Ushbu imkoniyat taqdim etish bo‘yicha kafolat xati. |

**2. Taklifning narx qismini baholash.**

Ishtirokchilarning taklif narxini baholash, tender komissiyasi tomonidan texnik va malakaviy baholash o‘tkazilgandan so‘ng ishtirokchilarning narx takliflari asosida komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

| № | Mezon | Boshlang‘ich narx | Eslatma |
|---|---|---|---|
| 1 | Narx taklifi | **7 146 687 000** (yetti milliard bir yuz qirq olti million olti yuz sakson yetti ming) so'm QQS bilan. | Takliflarning malaka va texnik tanlovidan o‘tgan, minimal narx taklifini bergan ishtirokchi g‘olib sanaladi |

**Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti direktori v.v.b.** — **A. Xujamuratov**

**Ma’muriy xo‘jalik departamenti direktori** — **F. To‘rayev**

**Bank kartalari tizimlarini qo‘llab-quvvatlash departamenti direktori** — **M. Karimov**

**Tranzaksion banking departamenti direktori o‘rinbosari** — **X. Abdullayev**

**Axborot texnologiyalari departamenti direktori** — **A. Kenjayev**

**Yuridik departamenti boshqarma boshlig‘i** — **O. Sulaymanov**